

INNOVATION BOSHQARISH STRATEGIYASINING ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARI

I.A.Tursunqulov, Jizzax Sambhram universiteti dotsenti

M.Z.Normurodova, Jizzax Sambhram universiteti magistranti

Annotatsiya. Ilg'or xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion boshqarish strategiyasi faqat texnologiyalar ishlab chiqish emas, balki korporativ madaniyat, rahbarlik, tizimli jarayonlar va biznes motivatsiyasi bilan mujassamlashgan integral tizimdir. Bunday strategiyalar kompaniyalarga bozorda ustunlik, tizimli o'sish va raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun muhim strategik vosita xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: boshqaruv, xorijiy tajriba, xarajatlar, biznes, innovatsiya, strategiya.

ADVANCED FOREIGN PRACTICES OF INNOVATIVE MANAGEMENT STRATEGY

I.A.Tursunkulov, Associate Professor of Jizzakh Sambhram University,

M.Z.Normurodova, Master's student of Jizzakh Sambhram University

Annotation. Advanced foreign experience shows that the strategy of innovative management is not only the development of technologies, but also an integral system embodied in corporate culture, leadership, systemic processes, and business motivation. Such strategies serve as an important strategic tool for companies to maintain market dominance, systematic growth, and competitiveness.

Keywords: management, foreign experience, costs, business, innovation, strategy.

Jahon iqtisodiyotida keng ko'lamli tarkibiy o'zgarishlar, ishlab chiqarishning diversifikatsiyalashuvi fan va texnologiyalarning tez sur'atlarda rivojlanishi kuzatilmoqda. Mazkur holat asosan rivojlangan va qisman rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotida ro'y berib bu yerda ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda texnologik va boshqaruv innovatsiyalarining keng qo'llanishi iqtisodiy o'sish va

aholi turmush darajasining o'sishiga olib keluvchi eng asosiy kuchlardan biriga aylandi.

Tahlillarning ko'rsatishicha, amaliyotga joriy etilgan yangiliklar yiliga mehnat unumdorligini 2,5-3 foizga, shuningdek, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 65 foizga oshirishga imkon beradi. Iqtisodiyot uchun innovatsion rivojlanishning asosiy natijalaridan biri bu mehnat unumdorligini oshirish hisoblanadi.

Ma'lumotlarga ko'ra oxirgi yillarda jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi YaIMning 75 foizigacha bo'lgan qismi innovatsiyalar hisobiga yaratilmoqda. Oxirgi 15 yilda AQSh va G'arbiy Yevropada innovatsiya sohasida ishlovchi xodimlar soni 2 martaga, Janubiy-Sharqiy Osiyoda esa 4 marotabaga ortgangini ko'rish mumkin. Yevropa ittifoqida innovatsion faol sanoat korxonalarining ulushi 50 foizdan ortiqroqni tashkil etmoqda. Yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar borasidagi yangi g'oyalar generatsiyasi bugungi kunda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va uning aholisi turmush darajasi sifatini belgilaydi.

Ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish borasida AQSh yetakchilik qilishni davom ettirmoqda. AQShning eng ustuvor siyosatidan biri - bu ilmiy-texnik taraqqiyotni rag'batlantirish hisoblanadi. Bilimlar sohasidagi fundamental yutuqlar iqtisodiy o'sishning asosiy sifatida rasmiy jihatdan tan olingan. AQShdagi mavjud baholashlarga ko'ra ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari(ITTKI)ga sarflangan bir dollar, YaIMning 9 dollarga o'sishiga olib keladi.

Oxirgi o'n yillikda innovatsiyaning ildam rivojlanishi yetakchi g'arb davlatlari uchun milliy ustuvorliklaridan biriga aylandi. Ushbu holat avvalambor innovatsion sohalarga kiritilayotgan investitsiyalar hajmida sezilarli o'zgarishlarda kuzatilmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, fundamental tadqiqotlarni ham qo'shib hisoblaganda ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarga sarfalanadigan ichki yillik xarajatlar miqdori rivojlangan mamlakatlarda 1990-2009 yillarda 2,5 martadan ortiqroqqa ortgan tarzda 940 mlrd. dollargacha yetgan.

Keyingi yillarda rivojlangan mamlakatlar tadbirkorlik sektorida innovatsiyalarga sarflangan xarajatlarning katta qismi(65-70 foizi) 6 ta tarmoqlar hissasiga, ya'ni mashina va asbob-uskunalarni ishlab chiqarish, elektronika sanoati, farmasevtika va biotexnologiya, avtomobilsozlik, dasturiy ta'minot ishlab chiqarishi va IT-xizmat, tibbiy jihozlarni ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda. Bunda yirik davlatlar orasida, AQSh, Fransiyada va nisbatan kamroq darajada Yaponiyada ilmiy tadqiqotlarga yo'naltirilgan investitsiyalar diversifikatsiyalangan tavsifga ega bo'lib, keng doiradagi tarmoqlarga yo'naltiriladi. Boshqa yetakchi mamlakatlarda innovatsiyalarga sarflangan xarajatlar asosan 2-3 ta tarmoqlarga, masalan, Germaniyada avtomobilsozlikka, mashina va jihozlarni ishlab chiqarishga, Buyukbritaniyada farmasevtika va biotexnologiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Masalan, ba'zi bir mamlakatlarda o'z YaIMning 2 foizdan ko'prog'ini milliy iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlaydigan ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarga sarflashadi. AQShda ushbu sohaga sarflanadigan summa YaIMning 2,5 foizini, Germaniyada-2,3 foizini, Yaponiyada-2,8 foizini, Fransiyada-2 foizini, Italiyada-1 foizni va Angliyada-2 foizni tashkil etadi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ilmiy tadqiqotlar va izlanishlarni olib borish siyosati AQSh va Yaponiyaga nisbatan farq etadi va ularda asosiy e'tibor fundamental fanlarni rivojlantirishga qaratiladi. Oxirgi yillarda texnologik proteksionizm borasidagi olib borilgan siyosat kutilgan natijalarni bermadi. AQSh milliy muhandislar akademiyasi ekspertlarining baholashlariga ko'ra, Yevropa ittifoqi mamlakatlari ishlab chiqarish jarayonlarini yangilash sur'atlari bo'yicha AQShdan 2 martaga, Yaponiyadan esa 3 marta orqada.

Shuningdek, Yevropada AQSh va Yaponiyaga nisbatan kichik venchurli biznes kam rivojlangan bo'lib markazlashgan(davlat va bank) qo'llab-quvvatlash g'oyasi asosiy o'rinni egallaydi. Alohida tarmoqlarni moliyalashtiruvchi banklar uchun odatda loyihaning kasodga uchrashiga yo'l qo'yilmaydi.

Shu bilan bir vaqtda Yevropa ittifoqi innovatsion faoliyatni faollashtirishga katta e'tibor qaratib, uning innovatsiya siyosatining asosiy yo'nalishlariga quyidagilar kiradi:

- yagona monopoliyaga qarshi qonunchilikni yaratish;
- jihozlarni tezlashtirilgan amortizatsiyalash tizimini qo'llash;
- kichik ilm talab biznesni imtiyozli soliqqa tortish;
- kichik ilm talab biznesni qo'llab-quvvatlash;
- yangi texnologiyalar sohasida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirishni tashkil etish;
- universitet fani bilan ilm talab etuvchi mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi tashkilotlar hamkorligini rag'batlantirish.

Umuman olganda, rivojlangan mamlakatlarda innovatsiyalarni moliyalashtirishda ham yirik korporatsiyalar ham kichik va o'rta biznes sub'ektlari faol qatnashadi. Turli biznes sub'ektlari bilan bir qatorda innovatsiyalarni moliyalashtirishda an'anaviy ravishda davlat ham faol qatnashadi. Lekin oxirgi yillarda aksariyat rivojlangan mamlakatlarda ichki ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni moliyalashtirish borasidagi xarajatlarining nisbatan sezilarli kamayganligiga qaramasdan innovatsiyalarga sarflangan umumiy xarajatlar ulushida davlatning hissasi haliyam yuqori darajada saqlanmoqda. Masalan, 2008 yilda uning ulushi 28 foiz atrofida bo'lgan(1990 yilda u 35 foizdan yuqoriroq bo'lgan).

Keyingi yillarda aksariyat rivojlangan mamlakatlarda ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni moliyalashtirish manbalari tarkibida xorijiy investitsiyalar hissasi ko'proq kuzatilib, bu o'z navbatida mazkur sohada ro'y berayotgan globalizatsiyani aks ettiradi. Masalan, Buyukbritaniyada 2007 yilda tashqi qo'yilmalar hisobidan moliyalashtirilgan mablag'lar hissasi fanga yo'naltirilgan jami milliy xarajatlarning deyarli 18 foizini tashkil etgan bo'lsa, Yel mamlakatlarida bu ko'rsatkich o'rtacha-9 foizni tashkil etgan. AQSh va Yaponiya bundan mustasno bo'lib innovatsiya sohasida xorijiy kapital deyarli uchramaydi.

Germaniyada innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash turli darajalarda-federatsiya, alohida yerlar, shuningdek, Yevropa ittifoqi tomonidan amalga oshiriladi. Federal siyosat ham innovatsion faoliyat(masalan, soliq imtiyozlarini belgilash, maqbul federal qonunchilik bazasi)ga qulay shart-sharoitlar yaratish uchun ham ilmiy tadqiqotlarni maqsadli dasturlar, grantlar va h.k.lar orqali moliyalashtirishni to'g'ridan-to'g'ri qo'llab-quvvatlashga asoslanadi. Shu orqali markaziy hukumat organlari mamlakatda innovatsion faoliyat darajasini qo'llab-quvvatlash va amalga oshirishga yo'naltirilgan umumiy tizimni shakllantirishadi.

Tahlillarning ko'rsatishicha, boshqa Yevropa ittifoqi mamlakatlaridan farqli o'laroq Germaniyada yagona tarmoq mavjud bo'lib u o'z ichiga ham texnologik markazlarni va parklarni ham inkubatsion markazlarni qamrab olgan. Bunda AQShning inkubatorlarni, Buyukbritaniyaning ilmiy parklarni, Fransiya va Yaponiyaning texnopolislarni rivojlantirish tajribalaridan foydalanilgan. Natijada mamlakatning shart-sharoitlariga mos bo'lgan xususiy variant paydo bo'ldi

Shunday qilib xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda bugungi kunda ITTKIga YaIMning yetarli darajadagi katta qismi sarflanib ushbu ko'rsatkichlarning istiqbolda yanada oshishi kutilmoqda.

Foydalanilgan manbalar

1. Турсункулов, И. А. (2021). Бошқарув механизмини ташкил этишнинг хорижий тажрибаси. Academic research in educational sciences, 2(5), 378-385.
2. Abduhalilovich, T. I. (2025). STRATEGY FOR THE ORGANIZATION OF THE MANAGEMENT MECHANISM AT CONSTRUCTION MATERIALS ENTERPRISES. *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (10), 782-790.
3. Формирование инновационного развития. Сравнительный обзор опыта стран ЕЭК ООН в области финансирования предприятий на ранних этапах развития. Женева: ЕЭК ООН, 2007. с.8.

4. Никонова Я.И. Мировой опыт финансирования государственной инновационной стратегии// Вестник Томского государственного университета. 2013.№373. с.151-157.
5. Инновационная политика: учебник / Л.П. Гончаренко, Ю.А. Арутюнов. – М.: КНОРУС, 2009. -352 С.
6. Зарубежный опыт государственного регулирования инновационной деятельности Материалы международного форума// «Инновационные технологии и системы», Минск: ГУ «БелИСА», 2006. 156 с.